



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

qo'llanishi morfologik evfemizm yaratish imkoniyatlarining kengligi bilan izohlanadi. Sintaktik evfemizmlarning til madaniyatidagi o'rni va ularning qiyosiy o'rganilishi nafaqat lingvistik, balki madaniyatlaro komunikatsiya va interkultural muloqotni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allan, K., & Burridge, K. (2006). *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. Cambridge University Press.
2. Holder, R. W. (2008). *A Dictionary of Euphemisms*. Oxford University Press.
3. Neaman, J. S., & Silver, C. G. (1990). *Kind Words: A Thesaurus of Euphemisms*. Facts on File.
4. Усмонов, С. (2018). Ўзбек тилидаги эвфемизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари. Тил ва адабиёт таълими, 4, 45-49.
5. Раҳимов, М. (2020). Ўзбек ва инглиз тилларидаги эвфемизмларни қиёсий ўрганиш. Филология фанлари доктори диссертацияси. Тошкент.
6. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.

“OVUL ORALAGAN BO‘RI” QISSASIDA TABIAT VA INSON RUHIYATI TASVIRIGA XOS MUSHTARAKLIK

Toshbekova Ziyoda

mustaqil tadqiqotchi

ziyodatoshbekova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning “Ovul oralagan bo‘ri” qissasidagi insoniyat va nabotot dunyosidagi mushtaraklik qiyosiy tahlil etilgan bo‘lib, unda ular o‘rtasidagi mutanosiblik ruhiyati chizgilari orqali tatqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: peyzaj, “Ovul oralagan bo‘ri”, qissa, ijodkor, umuminsoniy xislatlar, bo‘ri, mergan, majoziy obrazlar.

Badiiy adabiyot dunyosida inson tasviri yetakchi omil ekanligi sir emas. Badiyat olamida mohir yozuvchi va adiblar uni aslo yakka-yolg‘iz tasvirlamaydi. Balki tabiat hodisalariga uyg‘un ravishda qalamga oladi. “Adabiyotning bosh mavzusi inson bo‘lgani bois uning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asar uchun material bo‘la oladi. Lekin badiiy asarda gavalantirilgan voqea-hodisalar hayotda ro‘y bergan yoki bo‘lishi mumkin voqealarning shunchaki bayoni emas, balki ularning muayyan nuqtai nazardan qayta ishlangan shakl idir”. [1] Shu e‘tibordan, N.Norqobilov o‘zbek nasrida odam, tabiat, hayvoniy olamning o‘zaro murakkab munosabatlarini muqoyasalar asnosida aks ettirishga intilayotgan ijodkordir. N.Norqobilov tog‘ bag‘ri qishloqlarini sayt etadi: ovchi, tog‘chi, o‘qituvchi, qizu ayol, bo‘ri, it, ayiq, qoplon singlarlar fe‘lini ko‘p bora tadqiq etadi. Odam bozorini kezadi, imkon qadar badiiy so‘z vositasida ularni baholashga harakat qiladi. Unda munosabatlar, chinu yolg‘on xatti-harakatlar, tuslanish va turlanishlar ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi hayvonu inson aro rango-rang

duellarga detektiv munosabatlarga duch keladi. Yozuvchi o'z asarlarida tiriklik hayot mohiyatiga mos qator his-tuyg'ularni go'zal bir yo'sinda ochib berishga harakat qiladi. Badiiy asar ro'y bergan qiziqarli voqealar tasviridan emas, balki inson ko'ngil qatlamlarining tahlilidan iboratdir. Har bir inson esa tabiat va insoniyatni o'z fahmi-farosati darajasidagina tushuna oladi. Shuning uchun bugungi adabiyotda odamdan tashqaridagi voqealarga emas, inson ruhiyatida sodir bo'layotgan ichki kechinma va jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, yozuvchining "Ovul oralagan bo'ri" qissasida keltirilgan tabiat tasviri asar qahramoni Cho'ngkalla xarakteri bilan uyg'un ifodalangan. Yozuvchi insondagi his-tuyg'u va odamiylik fazilatlarini yo'qolishini qish chillasidagi qorsiz dasht timsolida jonli gavdalandiradi. Inson gohida his-tuyg'ulariga asir bo'ladi, boshqalar qalb tuyg'ularini his qila olmaydigan, bir ozgina yutuqdan havolanib, atrofida kechayotgan hodisalardan bexabar, befarq, loqayd odamga aylanadi. Buni qaranki, yozuvchi asarida xuddi shu haqda quyidagi fikrlarni yozadi: "Salom mergan qishloqdoshlarining hadyalarini xushnud qabul qilishda davom etarkan, shu tobda o'ziga ajal timsoli ko'z tikib turganini xayoliga keltirmasdi. U maqtovlardan mast, hadyalardan baxtiyor edi. Dashtdagi tulki-yu quyonlarga qiron keltiruvchi bu kimsa bo'rini ilk bor qo'lga tushurishi edi". [2] Bir jonivorning ayriliq azobidan qiynalishi, fig'oni samolarni qaqshatib, mahzun oh chekishi, mag'rur boshini egishi kishini taajjubga soladi: "Yaydoq dashtda hidning saqlanishi qiyin. Shunga qaramay, Cho'ngkalla ayrim hidlarni farqlay bildi. Ammo bundan ko'ngli oroyish topmadi. Yolg'izligi kor qilib, ichki bir dard bilan g'ingshib yubordi. Bu nidoda judolik alami emas, yolg'izlik mavjud edi. Oqyoldan judo bo'lganini u hanuz xayoliga keltirmasdi. Oqyol shunchaki bandi, bandini esaqutqarmoq kerak." [3]

Bu fojiali yo'qotishdan butunlay tushkunlikka tushib, o'zini yo'qotib qo'ymagan, qolaversa, befarq va loqayd tushkun ruhiy holati o'z izmiga sola olmagan bu arloni bo'rini asarda qat'iyat timsoli sifatida ko'rishi mumkin. U har qanday sharoit va har qanday vaziyatda ham Cho'ngkalla bir necha bor Oqyolni izlab qishloq tomon yo'l soladi. Uning sevgisi shu darajada kuchliki, odamlar tomonidan beriladigan adadsiz qiynoqdan ham, o'limdan ham qo'rqmaydi. Uni faqat Oqyolning isi o'ziga chorlaydi. Biroq bu is uni o'zi uchun mutlaqo begona bo'lgan hidlar tomon etaklar, yuragida xadik va qo'rquv hislarini uyg'otar edi.

Qishloq yoqasida joylashgan balandlikda ulkan boshini, baquvvat oyoqlarigi qo'yib, qishloqni mahzun va jiddiy kuzatadi. Asarda vafodorlik, mehr-muhabbat, sadoqat kabi insoniy fazilatlar yuqori o'rinni egallaydi. Eng muhimi, bu insoniy fojialar bo'rilar xarakterining o'ziga xos qirralarini namoyon etish bilan ko'rsatiladi. Qissadagi voqealar rivojida, nafaqat, insondagi ijobiy fazilatlar, balki salbiy jihatlar ham juda jonli gavdalandiriladi. Teranroq nazar tashlansa, qissa muallif hozirgi kun uchun dolzarb bo'lgan ekologik tarbiyani ham o'quvchi ongiga qahramoni Cho'ngkalla orqali, juda muhim ramziy obraz vositasida singdiradi. Cho'ngkallaning jufti Oqyol ovchilar qopqoniga tushib, Salom merganning qurboniga aylandi. Vafodorlik timsoli sifatida berilgan bo'ri tabiatida juda go'zal his-tuyg'ular xuddi inson qalbidagi ruhiy holatlarga monand ko'rsatiladi.

Agarda insonda tuyg‘u bo‘lmasa, quyosh haroratsiz, tabiat rangsiz, tiriklik va xayol ruhsizlik kasb etadi. Biz tahlil qilishga urinayotgan mashhur "Ovul oralagan bo‘ri" qissasi zotan insonlar xususida bo‘lmasa-da, tabiatning yaratig‘i bo‘lgan, o‘z dunyosining mushkulotlaribilan kurashib dasht va o‘rmonlarda yashovchi bo‘ri haqida. Asar qahramoni arloni bo‘ri– Cho‘ngkalla o‘z jufti Oqyolni izlab Bevatapa etagiga kelishidan boshlanadi. Qish fasli bo‘lganligi sababli chorasizlik Salom merganni ham, Cho‘ngkallani ham sarosimaga solib qo‘yadi. Salom mergan nima qilarini bilmas, boshi beo‘xshov bu jondorni qo‘lga tushirish yo‘llarini o‘ylar va shu tufayli avvalgidan ko‘ra bir oz vazmin, mulohazakor hamda xayolchan bo‘lib qolgandi. Cho‘ngkallaning bo‘lsa, qahri jo‘shgandan jo‘shib, Salom merganni Oq panja kabi g‘ajib tashlagisi kelar edi. Uning kechinmalari tuyg‘ulari, eng muhimi, inson haqidagi o‘y-fikrlari yozuvchi tomonidan juda ishonarli qalamga olinadi.

Cho‘ngkalla Salom mergan oldida - uning qarshisida juda ojiz qolgandek ko‘rinadi. Ayriliq azobi har qanday qat‘iyatni, har qanday irodani sekin-asta emiradi. Qat‘iyat bir tog‘ bo‘lsa, tosh yo‘nuvchi uni bir chekkadan yo‘nib ado qiladi. Uzoq ayriliq xijroni Cho‘ngkallaning ruhiyatini mahzun ezmoqda edi.

Har qanday janrdagi badiiy asarda voqelik bayoniga obrazlararo konflikt qiziqarli tus beradi. Cho‘ngkalla bilan Salom mergan o‘rtasidagi zimdan ziddiyat o‘quvchining e‘tiborini tortadi.

Yozuvchining ushbu "Ovul oralagan bo‘ri" qissasida yoritilgan jondor – Cho‘ngkallaning umri davomida ishonib, sevib, birga (to‘dadan ayro holda yashasada) baxtli umrguzaronlik qilgan juftidan, yupanchidan judo bo‘lgan holati va uning ichkarisida kechgan zilzilalar silsilasi jondorning ruhiy olamini, ingroq nidosini va juftiga bo‘lgan sadoqatini nihoyatda teran aks ettiradi: "Axir dashtda sanqiganingda, oyog‘ing ostida qorning g‘irchillashiga nima etsin. Qorga cho‘milishlarni-ku asti qo‘yaverasiz. Hozir ayni qorga cho‘miladigan havo edi. Biroq u narsa Cho‘ngkallaning yuragiga sig‘mas, negaki, kutilmaganda u urg‘ochi bo‘ri Oqyolning izini yo‘qotib, qonli xalqobga duch kelib, turardi-da. Qon Oqyolniki, ammo jasad ko‘rinmasdi. Ayni shu narsa Cho‘ngkallaning ortiqcha bezovtalanishiga izn bermasdi. Nega deganda, jonivorlar to sherigining jonsiz jasadiga duch kelmaguncha judolikka ishonmaydi". Bu tasvirlarda ongsiz jonivorning xuddi odamlar kabi iztirob chekishi, fikrlashi kabi talqinlar asosli ifodasini topgan. To‘g‘ri, yozuvchi bu o‘rinda majoziy obraz orqali insonga xos bo‘lgan va bo‘lmagan xislatlarni talqin etgan.

Qissada insoniyatga xos bo‘lgan ba’zi bir xislatlar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu Salom mergan obrazida ifodalanadi. Salom merganni obro‘, shon-shuhrat va qandaydir mukofotni deya qora tunda jondor poylamoqchiligini yoki shu vahimali tunda xayollar iskanjasida qolib, turli o‘y-fikrlarni, yozuvchi mahorat bilan tasvirlaydi.

Yozuvchi Salom mergan obraziga o‘zgacha yondoshgan. Asar boshida mansab, obro‘, shon-shuhratga o‘ch, mukofot dardida tunni tun demay, kuyib pishayotgan odam syujet voqeligi echimida umuman boshqa insonga aylanadi. Uning tosh qalbida hayvonot olamiga nisbatan iliqlik paydo bo‘ladi. Inson va nabotot olami o‘rtasidagi ziddiyatlar mahorat bilan talqin qilingan bu qissada jamiyatdagi ijtimoiy-maishiy fojialar majoziy obrazlarga singdiradi. Inson va tabiat birligi, uning biri ikkinchisiga kerakligini teranroq anglashga undaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yozuvchi Normurod Norqobilov arloni bo'ri Cho'ngkalla va Salom merganning o'y-mushohadalari orqali insoniyatda tobora kamayib borayotgan ba'zi bir xislatlarni bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbat, jonkuyarlik, o'zaro ishonch, odamiylik, samimiylilik, insofililik kabi qator umuminsoniy xislatlar va shu bilan birga tabiatni asrab-avaylash, uni muhofaza qilish, nabobat olamiga mehr qo'yish hamda uning oldidagi burch va mas'uliyatni yo'qotmaslik kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'ychiev A. O'zbek romanlarida makon va zamon. –T.: “Mumtoz so'z”, 2009. – 152 b.
2. Норқобилов Н. Овул оралаган бўри. Қаранг: Овул оралаган бўри. Қиссалар. –Т., “Шарқ”, 2005. 8-бет.
3. Norqobilov N. Bo'ron qo'pqon un. Qissa va hikoyalar. – T.: Sharq, 2007. – 304 b.

ERGONIMLARNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Salohiddinova Muborak Baxtiyor qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada onomastikaning bir bo'lagi bo'lgan ergonimlar, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi kelib chiqishi, ergonimlar qay tariqa tanlanishi zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va boshqa tushunchalardan farqi, aloqadorlik jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ergonim, neyming, brend, oykomodonim, ergourbonim, firmonim, restoronim, trofonim, ergoreklamonim, glyuttonik pragmatonimlar.

Bizga ma'lumki, o'zbek onomastikasida hali tadqiqini topmagan bir qator muammolardan biri tilshunoslikdagi ergonim tushunchasidir. Bizningcha, ergonim – jamiyat hayotida faoliyat olib borayotgan turli sohalaridagi korxona, tashkilot, uyushma, ta'lim muassasalari, firma, savdo va ishlab chiqarish obyektlari, maishiy xizmat ko'rsatish joylari nomlaridir.

N.V. Podolskayaning qayd etishicha, ergonim atamasi yunon tilidagi “ergov” – ish, faoliyat, mehnat, vazifa so'zidan olingan bo'lib, tijorat uyushmalari, turli birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, korporatsiyalar, korxonalar, jamiyatlarning atoqli nomlariga nisbatan ishlatiladi. Bunday ergonimlarga misol sifatida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro astronomik ittifoq (XAI), Fanlar akademiyasi (FA), Moskva davlat universiteti (MDU), Kichik teatr, “Pravda” kombinati, “Spartak” sport uyushmasi, “Moguchaya kuchka” musiqa to'garaklarini keltiradi.

A. M. Yemelyanova ergonimlar tarkibiga faqat turli funksional profildagi korxonalarning tegishli nomlari ya'ni, tijorat birlashmalari, korxonalar, madaniyat, sport obyektlarini kiritadi. Y. A. Trifonova esa ergonimlarga huquqiy maqomidan qat'iy nazar, har qanday tijorat obyektlariga tegishli atoqli nomlarni kiritadi va ular